

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ODILOV XAMIDILLO MAXMUDJON O‘G‘LI

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA
EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida) 5

Одиллов Хамидилло Махмуджан оглы

Совершенствование организационно-экономического механизма обеспечения экологической безопасности при устойчивом развитии экономики региона (на примере Наманганской области)..... 31

Odilov Hamidillo Mahmudzhan oglu

Improving the organizational and economic mechanism for ensuring environmental safety with the sustainable development of the region's economy (the example of Namangan region)..... 59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 63

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ODILOV XAMIDILLO MAXMUDJON O‘G‘LI

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA
EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5188 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Matyakubov Umid Raximovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ziboyev Behzod Hamidovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat _____:_____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz.

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d, professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosida ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, sanoatning keskin rivojlanishi va urbanizatsiya ekologik muammolarning chuqurlashishiga olib kelmoqda. So'nggi 10 yil ichida karbonat angidrid chiqindilari har yili o'rtacha 1,2 foizga oshib bormoqda.¹ Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, ifloslanish sababli rivojlanayotgan mamlakatlar har yili YAIMning 2-5 foizini yo'qotmoqda. Hindistonda ekologik xavflar salomatlikka salbiy ta'siri tufayli 2024-yilda 95 milliard dollar zarar ko'rilgan.² Mazkur ko'rsatkichlar ekologik xavfsizlikni ta'minlash faqat ekologik emas, balki iqtisodiy masala ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bois, Yevropa Ittifoqida "Yashil kelishuv" strategiyasi orqali karbonat angidrid chiqindilari 2030-yilgacha 55 foizga kamaytirilishi maqsad qilingan. 2023-yildagi qonunchilikka ko'ra, AQSHda "yashil infratuzilma"ga 369 mlrd. dollarlik investisiyalar kiritilmoqda.³ Bu esa mintaqalarda ekologik nazoratni kuchaytirish va iqtisodiy faoliyatni ekologik talablar bilan muvofiqlashtirishni talab qilmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda mintaqaviy iqtisodiyotni ekologik xavfsizlik bilan uyg'un rivojlantirishda tashkiliy, iqtisodiy, texnologik vositalar majmuasini takomillashtirish muammosini o'rganish va zamonaviy ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu borada ekologik toza texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish, qattiq chiqindilarni qayta ishlash me'yorlarini ishlab chiqish, ekologik soliq va kvotalar tizimini takomillashtirish, ekologik muammolarning texnologik yechimlarini ishlab chiqish, ekologiyaning buzilishini mintaqaviy iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir asoslash, ekologik soliq va preferensiyalar tizimini rivojlantirish, mintaqaviy ekologik audit va monitoring tizimini yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Mazkur tadqiqot natijalari iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi sifatida baholanmoqda.

Yangi O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ekologik barqarorlikni ta'minlash va yashil iqtisodiyotga o'tishni muhim yo'nalish sifatida belgilagan. Shuningdek, BMTning 2030-yilga qadar Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy darajada amalga oshirish bo'yicha rejalar qabul qilingan.⁴ Shu bilan birga, O'zbekistonning 80 foiz hududi qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil mintaqalar qatoriga kiradi. Har yili suv resurslariga bo'lgan talab 10-15 foizga ortmoqda va mavjud suv manbalari qisqarib bormoqda. Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Olmaliq kabi sanoat mintaqalarida havoning ifloslanish darajasi me'yordan 2-3 marta

¹ Methane data and transparency continue to improve, but emissions remain far too high. <https://www.iea.org/news/methane-data-and-transparency-continue-to-improve-but-emissions-remain-far-too-high>

² Air Pollution Costs Indian Businesses 95 Billion Dollars Every Year, Says Study. https://www.ndtv.com/india-news/air-pollution-costs-indian-businesses-95-billion-dollars-every-year-says-study-2418339#google_vignette

³ The Green Deal Industrial Plan. https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019-2024/european-green-deal/green-deal-industrial-plan_en

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

yuqori bo‘lmoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni mintaqaviy ixtisoslashuvga moslashtiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni talab qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” va 2018-yil 3-oktyabrdagi PQ-3956-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 18 fevraldagi 95-son “Ekologik xavfsizlik to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi qarori hamda mazkur yo‘nalishdagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan dapajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijlik iqtisodchi olimlar D.D.Saks, D.X.Medouz, D.Pirs, E.B.Barbe, J.E.Stiglits, X.E.Deyli, R.Konstantsa, P.Dasgupta, N.Stern, D.Medouz, T.Titenberg, U.D.Nordhaus, D.Xelm, T.Xak, K.Ravort, P.Ekins va boshqalar tomonidan tabiatdan foydalanish va ekotizimlar, barqaror rivojlanish iqtisodiyoti, tabiiy kapitalning qiymati, bioxilma-xillik iqtisodiyoti, iqlim o‘zgarishi iqtisodiyoti, ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.⁵

Yaqin xorij olimlari V.A.Xaskin, A.N.Solovyov, Yu.Ya.Krasovskiy, I.V.Kolesnikova, S.A.Gerasimov, I.L.Xlebnikov, P.V.Romanov, N.A.Semyonova, S.Yu.Krutikov Ye.A.Lukyanova va boshqalar ekologik siyosat va mintaqalarning barqaror rivojlanishi, iqtisodiyot va ekologiyaning integratsiyalash yo‘llari, biznesning ijtimoiy va ekologik javobgarligi, ekologik xavflarni baholash mexanizmlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan.⁶

⁵ Sachs, J. D. (2015). *The Age of Sustainable Development*. Columbia University Press.; Meadows, D. H., Meadows, D. L., Randers, J. (2004). *Limits to Growth: The 30-Year Update*. Chelsea Green Publishing.; Pearce, D., Markandya, A., Barbier, E. (1989). *Blueprint for a Green Economy*. Earthscan.; Barbier, E. B. (2011). *Capitalizing on Nature: Ecosystems as Natural Assets*. Cambridge University Press.; Stiglitz, J. E., Sen, A., Fitoussi, J.-P. (2009). *Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress*.; Daly, H. E. (1996). *Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development*. Beacon Press.; Constanza, R. et al. (1997). *The Value of the World’s Ecosystem Services and Natural Capital*. *Nature*, 387(6630), 253–260.; Dasgupta, P. (2021). *The Economics of Biodiversity: The Dasgupta Review*. HM Treasury.; Stern, N. (2007). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge University Press.; Meadows, D. (1999). *Leverage Points: Places to Intervene in a System*. Sustainability Institute.; Tietenberg, T., & Lewis, L. (2020). *Environmental and Natural Resource Economics* (11th ed.). Pearson.; Nordhaus, W. D. (2008). *A Question of Balance: Weighing the Options on Global Warming Policies*. Yale University Press.; Helm, D. (2015). *Natural Capital: Valuing the Planet*. Yale University Press.; Hák, T., Janoušková, S., & Moldan, B. (2016). *Sustainable Development Goals: A Need for Relevant Indicators*. *Ecological Indicators*, 60, 565–573.; Raworth, K. (2017). *Doughnut Economics: Seven Ways to Think Like a 21st-Century Economist*. Chelsea Green Publishing.; Ekins, P., McGlade, C., Sharmina, M. (2020). *Environmental Sustainability and Economic Development: The Key Linkages*. *Environmental Science & Policy*, 113, 127–135.

⁶ Хаскин В.А. Организационно-экономический механизм обеспечения экологической безопасности. - М.: ИНФРА-М, 2018.; Соловьёв А.Н. Экологическая политика и устойчивое развитие регионов. - Казань: Казанский

O‘zbekistonda ekologik xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiyotni ekologik jihatdan samarali boshqarish, hududiy rivojlanishda ekologik muvozanat va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari T.Doschanov, M.Jo‘rayev, S.Qodirov, A.Hasanov, I.Ergashev, B.Toshpulatov, Z.Qodirov, Sh.Rashidov, R.Nurmatov, B.To‘xtayev, D.Mavlonov, G.Raximova, N.Eshonqulova, S.Qo‘chqorov, S.G‘afurov va Z.Safarovalar tomonidan tadqiq qilingan.⁷

Yuqoridagi tadqiqotlarda birinchidan, mintaqaviy iqtisodiy makonning tarkibiy qismi sifatida ekologik xavfsizlikni nazariy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmaganligini ta’kidlash lozim. Ikkinchidan, zamonaviy yondaShuvlarda mintaqaning notekis makon jihatidan rivojlanishini hisobga olgan holda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari ochiq qolmoqda. Bu esa dissertatsiya mavzusini tanlash, tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilashga asos bo‘ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi, Davlat ilmiy-texnika dasturlarining “O‘zbekiston tog‘ va vodiy hududlarida o‘rmonlarni barqaror boshqarish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

ekologik xavfsizlik konsepsiyasi asosida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalarini tadqiq etish;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ekologik jihatlarini ochib berish;

mintaqada ekologik xavfsizlikni ta’minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining tarkibiy tuzilishini tizimli tahlil qilish;

университет, 2019.; Красовский Ю.Я. Экономика и экология: пути интеграции. - Новосибирск: Сибирское отделение РАН, 2018.; Колесникова И.В. Экологизация экономики регионов России. - Екатеринбург: УрФУ, 2021.; Герасимов С.А. Экологическая безопасность и региональное развитие в России. - М.: Наука, 2017.; Хлебников И.Л. Социально-экологическая ответственность бизнеса в регионах. - М.: ИНФРА-М, 2020.; Романов П.В. Природопользование и охрана окружающей среды в России. - М.: Экономика, 2020.; Семёнова Н.А. Экологическая модернизация экономики регионов РФ. - СПб.: ГУАП, 2019.; Крутиков С.Ю. Механизмы оценки экологических рисков. - Екатеринбург: УрФУ, 2020; Лукьянова Е.А. Инструменты стимулирования экологической ответственности предприятий. - Воронеж: ВГУ, 2022.

⁷ Досчанов Т.Д. Эколога-экономические проблемы химизации агропромышленного комплекса в Узбекской ССР / Т. Д. Досчанов; АН УзССР, Ин-т экономики. — Ташкент : Фан, 1989. — 141,[2] с. : 22 см.; ISBN 5-648-00333-1.; Jo‘rayev M. Ekologik xavfsizlik va mintaqaviy rivojlanish. – T.: Iqtisodiyot, 2019.; Qodirov S. Barqaror rivojlanish nazariyasi va amaliyoti. – Samarqand: SamDU, 2021.; Hasanov A. Iqtisodiyotni ekologik jihatdan samarali boshqarish. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2020.; Ergashev I. Hududiy rivojlanishda ekologik muvozanat. – T.: Yangi asr avlodi, 2022.; Toshpulatov B. Yashil iqtisodiyot va atrof-muhit muhofazasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2021.; Qodirov Z. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat: ekologik yondashuvlar. – Buxoro: BDU, 2021.; Rashidov Sh. Iqlim o‘zgarishi va iqtisodiyot. – T.: Ekosan, 2021.; Nurmatov R. Atrof-muhit va iqtisodiy siyosat. – T.: Mehnat, 2020.; To‘xtayev B. Ekologik boshqaruv va barqarorlik. – T.: Iqtisodiyot, 2021.; Mavlonov D. Ekologik soliq siyosati va iqtisodiyot. – T.: Davlat soliq qo‘mitasi nashriyoti, 2021.; Raximova G. Mintaqaviy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhit muhofazasi. – Andijon: ANDMI, 2020.; Eshonqulova N. Atrof-muhitni baholash va ekologik audit. – T.: Ekologiya, 2021.; Qo‘chqorov S. Ekologik xavfsizlik va iqtisodiy mustahkamlik. – T.: Fan, 2020.; G‘afurov S. Tabiiy resurslardan foydalanishda iqtisodiy mexanizmlar. – T.: Innovatsion taraqqiyot, 2020.; Safarova Z. Ekologik xavf va iqtisodiy zararlarni baholash. – T.: Ekosan, 2021.

Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining o'ziga xos xususiyatlarini baholash;

mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muammolarini ochib berish;

mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning prognoz parametrlari ishlab chiqish;

Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini tadqiq qilish.

Tadqiqotning obekti sifatida Namangan viloyatining iqtisodiyoti va ekologik xavfsizlik tizimi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar majmuasi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida induksiya va deduksiya, retrospektiv, miqdoriy, tizimli, qiyosiy, konstruktiv va tipologik tahlillar, statistik guruhlashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va iyerarxik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ekologik xavfsizlikni hududiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida qaralib, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikning tashkiliy iqtisodiy mexanizmi taklif etilgan;

atmosfera chiqindilari hajmi, qayta ishlanmagan chiqindilar ulushi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yashil hududlar, sanoat ishlab chiqarish hajmining atrof-muhitga ta'siri kabi ko'rsatkichlar asosida $0 \leq EIRI \leq 0,3$ ekologik xavf yuqori, $0,41 \leq EIRI \leq 0,7$ mo'tadil xavf, $0,71 \leq EIRI \leq 1$ barqaror rivojlanish kabi mintaqaning ekologik-iqtisodiy rivojlanish indeksi ishlab chiqilgan;

ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning samaradorligini baholash modelining har bir chora-tadbir natijadorligida Namangan shahri, Pop va Chust tumanlari yuqori samaradorlik guruhiga (Efficiency score $\geq 0,9$), Norin, Uychi va Yangiqo'rg'on tumanlari past samaradorlik guruhiga kirishi (Efficiency score $< 0,7$) aniqlangan;

“yashil iqtisodiyot” elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish va iqtisodiy barqarorlikni oshirish imkoniyatlari asosida 2030-yilgacha bo'lgan davrda Namangan viloyatida qayta ishlangan chiqindi hajmi o'zgarishining ko'p omilli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mintaqada ekologik xavf darajalarini aniqlash uchun indikatorlar tizimi (havo, suv, tuproq ifloslanish ko'rsatkichlari, chiqindilar hajmi, yashil maydonlar ulushi) asosida tahliliy model yaratildi;

ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun institusional, moliyaviy va iqtisodiy vositalar integratsiyasi va ekologik xavf mezonlari asosida hududiy investisiya siyosatini shakllantirish taklif qilindi;

ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy indikatorlarni integratsiyalovchi kompozit indeks ishlab chiqildi va Namangan viloyati hududlari uchun ekologik-iqtisodiy barqarorlik darajalari reytingi ishlab chiqildi;

ekologik innovatsiyalarni (yashil texnologiyalar, chiqindini qayta ishlash, toza energiya) joriy etishning iqtisodiy samaradorligi Namangan viloyati misolida asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan ma'lumotlar va ular taniqli iqtisodchi olimlarning mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilinganligi, axborot bazasi milliy va nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan olinganligi, natijalarni Namangan viloyati hokimligi tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ekologik xavfsizlikni to'laqonli baholash imkoniyatini beruvchi indikatorlar tizimini ishlab chiqishda foydalaniladi. Taklif etilgan tadqiqot usullari ekologik xavf va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mintaqaning ekologik xavfsizlik holatini tahlil qilish asosida hududiy boshqaruv organlari uchun muammoli hududlarni aniqlash va ustuvor yo'nalishlarni belgilash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda, "Mintaqaviy iqtisodiyot" va "Ekologiya iqtisodiyoti" fanlarini o'qitishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

ekologik xavfsizlikni hududiy rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida qaralib, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, iqtisodiy o'sish va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikning tashkiliy iqtisodiy mexanizmi bo'yicha taklif Namangan viloyati hokimligi va viloyat Ekologiya boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan hududiy ekologik xavfsizlik dasturida foydalanilgan (Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 28-maydagi 03/12-1969-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida sanoat chiqindilarini kamaytirish, havoni ifloslantiruvchi manbalarni nazorat qilish va "yashil hududlar" barpo etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan;

atmosfera chiqindilari hajmi, qayta ishlanmagan chiqindilar ulushi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yashil hududlar, sanoat ishlab chiqarish hajmining atrof-muhitga ta'siri kabi ko'rsatkichlar asosida $0 \leq EIRI \leq 0,3$ ekologik xavf yuqori, $0,41 \leq EIRI \leq 0,7$ mo'tadil xavf, $0,71 \leq EIRI \leq 1$ barqaror rivojlanish kabi mintaqaning ekologik-iqtisodiy rivojlanish indeksi taklifidan Namangan viloyati hokimligida hududlarning ekologik audit tizimini yo'lga qo'yish uchun foydalanilgan (Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 28-maydagi 03/12-1969-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida sanoat korxonalarida chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini baholash, hududlar kesimida ekologik holatni tahlil qilish va qarorlar qabul qilish imkonini bergan;

ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning samaradorligini baholash modelining har bir chora-tadbir natijadorligida Namangan shahri, Pop va Chust tumanlari yuqori samaradorlik guruhiga (Efficiency score ≥ 0.9),

Norin, Uychi va Yangiqo‘rg‘on tumanlari past samaradorlik guruhiga kirishi (Efficiency score < 0.7) taklifi Namangan viloyatida ekologik nazorat va monitoring tizimini raqamlashtirishda foydalanilgan (Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 28-maydagi 03/12-1969-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida yiliga 2000 tonnadan ortiq sanoat chiqindilari utilizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarida energiya va resurs tejash hisobidan yiliga 3-5 milliard so‘mgacha tejash imkoniyati yaratilgan;

“yashil iqtisodiyot” elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish va iqtisodiy barqarorlikni oshirish imkoniyatlari asosida 2030-yilgacha bo‘lgan davrda Namangan viloyatida qayta ishlangan chiqindi hajmi o‘zgarishining ko‘p omilli prognoz parametrlaridan Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Namangan viloyati hokimligining 2025-yil 28-maydagi 03/12-1969-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 3 bosqichli strategik transformatsiya modelini (yashil mexanizmlarni joriy qilish – kengaytirish va optimallashtirish – samaradorlik va raqobatbardoshlik) ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkup tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ishlar, jumladan 1 ta xalqaro va 3 ta mahalliy jurnallarda ilmiy maqola, 6 ta ma‘ruza matni tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 1154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar belgilangan, tadqiqotning obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi va e‘lon qilinganligi ochib berilgan, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi **“Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning tashkiliy-iqtisodiy asoslari”** deb nomlanib, ekologik xavfsizlik konsepsiyasi asosida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ochib berilgan, mintaqada iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning ekologik jihatlari tadqiq etilgan, mintaqada ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmidan foydalanish imkoniyatlari baholangan.

Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda ekologik xavfsizlik masalasi tobora dolzarblashib borayotganligi, xususan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta‘sirlarni kamaytirish va ekologik muvozanatni saqlab qolish hududiy taraqqiyot siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanayotganligi, ekologik muammolar faqat ekologlarning emas, balki iqtisodchilarning, boshqaruvchilar va tadbirkorlarning ham dolzarb masalasiga aylangani bejiz emasligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Iqlim o‘zgarishi, havo va suv resurslarining ifloslanishi, sanoat chiqindilarining ortib borayotgani, yer maydonlarining degradatsiyasi kabi muammolar mintaqaviy iqtisodiyotning barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Ayniqsa, aholisi zich va iqtisodiy faolligi yuqori bo‘lgan hududlarda ekologik xavfsizlikni ta‘minlash orqali iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda mavjud tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar ekologik tahdidlarni kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish vazifasini to‘liq bajarmayapti.

Dissertatsiyada hududiy iqtisodiy rivojlanish va ekologik xavfsizlik o‘zaro chambarchas bog‘liqligi asoslangan. Mavjud ilmiy yondashuvlar tahlili Shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasida muvozanat bo‘lmasa, na iqtisodiy samaradorlikka, na ijtimoiy farovonlikka erishish mumkin. Shu bois, ekologik xavfsizlikni ta‘minlovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ekologik xavfsizlik konsepsiyasining asosiy vazifasi turli xil ekologik tahdidlar, texnogen va tabiiy muammolar sharoitida insonlarni xavfsiz yashashini ta‘minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekotizimlarni himoya qilishga qaratilgan. Ekologik xavfsizlik konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha harakatlar atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha mintaqaviy siyosatdir. Bu shaxslarning hayoti va sog‘ligini, jamiyat, davlat va umuman butun insoniyat manfaatlarini himoya qilish qoidalarini huquqiy jihatdan mustahkamlashda namoyon bo‘ladi.⁸

⁸ Музалевский А.А. Экологическая безопасность и методы ее обеспечения (Учебное пособие). – Санкт-Петербург: РГТУ, 2020. – С. 21-22.

Ayni vaqtda ekologik xavfsizlik tuchunshasini shakllantirish masalasida yagona yondaShuv mavjud emas (1-jadval).

1-jadval

“Ekologik xavfsizlik” tuchunshasining talqini⁹

Mualliflar	Ta’riflar
Freydkina Ye.M. Treyman M.G.	Ekologik xavfsizlik – insoniyatning yashash sharoitlarini yaxshilash, biosfera va uning tarkibiy elementlarini har qanday xavf va tahdidlardan samarali himoya qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar va mexanizmlar majmuasini ifodalaydi
Byuzan B.	Ekologik xavfsizlik – insoniyat va atrof-muhit uchun xavfli holatlarning yuzaga kelish ehtimolini prognoz qilish, ularning oldini olish choralari ko‘rish, Shuningdek, yuzaga kelgan taqdirda esa ularni samarali tarzda bartaraf etish imkonini beruvchi boshqaruv va tartibga solish mexanizmlarining kompleks tizimini ifodalaydi.
Sporting E.Dj.	Ekologik xavfsizlik – bu insoniyat hayot faoliyatini ta’minlash, tabiiy ekologik tizimlardagi muvozanatni barqaror saqlash va tabiiy resurslardan samarali foydalanishni kafolatlash maqsadida yer resurslarining iqtisodiy jihatdan muhim tarkibiy qismlarini kompleks himoya qilish holatidir.
Djorobekov J.M.	Ekologik xavfsizlik - atrof-muhitning ifloslangan tabiiy obyektlari tomonidan kelib chiqadigan xavf-xatarlarni minimallashtirish va bartaraf etish, Shuningdek, aholining turli xil tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlardan samarali himoyalanihini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ifodalovchi holatdir.
Surkova Ye.V. Melchenko A.I.	Ekologik xavfsizlik – bu hayot xavfsizligiga o‘xshash tuShuncha, chunki har ikkala holatda ham insonni salbiy antropogen omillardan himoya qilish, uning yashashi uchun tegishli sharoitlarni ta’minlashni nazarda tutilgan.
Porfirev B.N.	Ekologik xavfsizlik – bu atrof-muhitni inson faoliyati ta’sirida yuzaga keladigan ifloslanishlardan himoya qilish, tabiiy muhitning o‘ziga xos dastlabki xususiyatlarini saqlab qolish hamda kelajak avlodlar uchun barqaror yashash va rivojlanish imkoniyatlarini yaratib berishni ifodalovchi holatdir.
Tulupov A.S.	Ekologik xavfsizlik tuShunchasi insonning atrof-muhitga va tabiiy tizimlarga ko‘rsatayotgan turli xil zararli ta’sirlarini imkon qadar minimallashtirishga qaratilgan tadbirlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir.

Tadqiqot davomida mintaqaning ekologik va iqtisodiy holati o‘rganish, amaldagi muammo va ziddiyatlar aniqlash masalalari tadqiq qilingan. Xususan, sanoat korxonalarida ekologik audit va monitoringning yetarli darajada emasligi, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanmagani, ekologik loyihalarni moliyalashtirishning cheklanganligi asosiy muammolar sifatida belgilangan.

⁹ Фрейдкина Е.М., Трейман М.Г. Экономическая оценка влияния промышленных предприятий на окружающую среду (Учебное пособие). - Санкт-Петербург: ВШТЭ СПбГУПТД, 2016. – С. 18-20.; Vuzan B. Security: a new framework for analysis. - Boulder: Lynne Rienner Pub., 2018. – pp. – 89-91.; Sporting E.J. Environmental Security: A conceptual investigating study. – Jonkoping: University, 2019. – pp 13-20.; Джоробеков Ж.М. Экологическая безопасность: понятие и содержание// Ж. Молодой ученый. – М.: № 4 (108), 2016. - С. 546–548.; Суркова Е.В., Мельченко А.И. Экологическая безопасность (Учебное пособие) – Краснодар: КубГАУ, 2014 – С. 12-15.; Порфирьев Б.Н. Природа и экономика: риски взаимодействия. - М.: Анкил, 2011. – С. 26-32.; Тулупов А.С. Теория ущерба как база оценки и регулирования негативных экстерналий в экологическом страховании: Автореф. дис. ... док. экон. наук. – М.: ГУУ, 2013. – 40 с. – manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, aholining ekologik madaniyat darajasi pastligi va jamoatchilik nazoratining sustligi ham ekologik xavfsizlikni ta'minlashda to'liq bo'lmoqda.

Shu asosda, dissertatsiyada mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning samarali modeli ishlab chiqilgan. Bu model quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- hududiy ekologik audit tizimini yaratish;
- chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;
- "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish;
- mahalliy budjetda ekologik fondlar ulushini ko'paytirish;
- ekologik ta'lim va targ'ibotni kuchaytirish orqali fuqarolik jamiyatining faolligini oshirish.

Taklif etilayotgan mexanizm orqali bir tomondan, iqtisodiy faoliyatdan atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirlar kamaytiriladi, boshqa tomondan esa, ekologik barqarorlik orqali hududning investitsiyaviy jozibadorligi oshiriladi. Bu esa o'z navbatida mintaqaviy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Albatta, mamlakat va alohida mintaqalar iqtisodiyotni sanoatlashtirishga katta ye'tibor qaratadi. Shunki, sanoat tarmoqlari iqtisodiy jihatdan yuqori daromad keltirishi bilan muhim sanaladi. Bu esa sanoat korxonlarini joylashtirishda ekologik xavfsizlik jihatlariga jiddiu ahamiyat berishni talab qiladi. Sanoat tarmoqlarining ekologik xavfini 10-balli shkalada quyidagisha baholash mumkin bo'ladi (2-jadval).

2-jadval

Sanoat tarmoqlarining ekologik xavf darajasi bo'yicha reytingi¹⁰


Sanoat tarmoqlari	Reyting
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash zavodlari	1
Raxta tozalash zavodlari	2
Oziq-ovqat sanoati	3
SHarm sanoati va jun uvvish korxonalarini	4
TSelluuloza-qog'oz sanoati	5
TSement sanoati	6
Qora metallurgiu zavodlari	7
Issiqlik elektr stantsiualari	8
Rangdor metallurgiu sanoati	9
Kimuo sanoati	10

Shu bois, tadqiqotda ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi mexanizmni quyidagi asosiy komponentlardan iborat tizim sifatida ko'riladidi: institutsional-huquqiy baza, iqtisodiy rag'batlantirish vositalari, nazorat va monitoring tizimi, hamda mintaqaviy ekologik infratuzilma. Bu komponentlar o'zaro uyg'unlikda ishlaganda ekologik xavfsizlikni yuqori darajada ta'minlash imkonini beradi.

Ma'lumki, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm – bu tashkiliy va iqtisodiy jihatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi hamda mexanizm elementlarining

¹⁰ Никулина Н.Л. Оценка загрязнения атмосферы промышленными выбросами (Монография). - Екатеринбург: ГОУ ВПО УГТУ-УПИ, 2016. – С. 33-34.

harakatlantiruvchi kushi uning funksiyalari bo'lishi kerak. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi funksiyalarining amaliy imrlkatsiyasi Shundan iboratki, korxonalarda har bir organi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishga tushishi uchun uning funksiyalari doirasida muayyan tashkiliy-iqtisodiy vazifalarni bajarishi lozim (1-rasm).



1-rasm. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni asosiy funksiyalari¹¹

Tadqiqotda mintaqada ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi asosiy omillar sifatida sanoat chiqindilari, qishloq xo'jaligidagi kimyoviy vositalardan noto'g'ri foydalanish, aholi sonining ortishi bilan bog'liq chiqindi miqdorining oshishi keltirilgan. Shuningdek, O'zbekistonda mavjud ekologik holatga ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning zaifligi mintaqada ekologik muammolarning chuqurlashishiga olib kelmoqda.

Shu bois, muallif tomonidan taklif etilgan yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm modeli quyidagi asosiy yo'nalishlarga tayanadi:

- ekologik boshqaruv institutlarini kuchaytirish – hududiy ekologik organlarning vakolatlarini kengaytirish, ularni ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga yo'naltirish;

- iqtisodiy rag'batlantirish tizimini joriy etish – ifloslanishni kamaytiruvchi korxonalariga soliq imtiyozlari, ekologik fondlar orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari;

- monitoring va nazorat tizimini takomillashtirish – raqamli texnologiyalarga asoslangan ekologik monitoring infratuzilmasini rivojlantirish;

- ekologik ta'lim va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish – aholi ekologik ongini oshirish orqali ekologik xavfsizlikni mustahkamlash.

Mazkur yondashuv mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashda davlat, biznes va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zaruratini

¹¹ Kornienko A.A. Organizational-economic mechanism of formation of the investment policy engineering companies by using data analysis// J. Economics: Yesterday, Today and Tomorrow. - № 10, 2020. – pp. 94-101.

ta'kidlaydi. Xususan, ekologik investitsiyalarni jalb qilish, yashil iqtisodiyotga o'tish, ekologik standartlarni qat'iylashtirish kabilar muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Muallifning fikricha, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning amaliyotga tatbiq etilishi mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining **“Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning o'ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Namangan viloyatining ekologik-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tahlil qilingan, ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini amalga oshirish holati ochib berilgan, mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muammolari ilmiy asoslangan.

Jumladan, Namangan viloyatining iqtisodiy rivojlanishi va ekologik holati o'zaro bog'liq holda shakllanmoqda. Hududda so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish sur'atlari ortib borayotgan bo'lsa-da, bu jarayon ekologik muammolarning keskinlashuvi bilan kechmoqda. Ekologik-iqtisodiy rivojlanishni baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar tizimi asosida tahlil olib borish muhimdir. Viloyatdagi asosiy ekologik muammolar atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar, chiqindilarni to'plash va utilizatsiya qilishdagi kamchiliklar, suv resurslarining ifloslanishi bilan bog'liqdir. 2023-yilda atmosfera havosiga chiqarilgan zararli moddalar hajmi 32,4 ming tonnani tashkil etib, bu 2020-yilga nisbatan 14,4 foizga ko'pdir.

Ayniqsa, yirik sanoat obyektlari joylashgan Namangan shahri, To'raqo'rg'on, Pop va Chortoq tumanlari atmosfera ifloslanishining yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Viloyatda har yili o'rtacha 450-500 ming tonna qattiq maishiy chiqindi hosil bo'lmoqda. Ulardan faqat 15-20 foizi qayta ishlanmoqda yoki yo'q qilinmoqda, qolgan qismi esa ochiq poligonlarda saqlanmoqda. Bu chiqindilarning noto'g'ri boshqarilishi tuproq va yer osti suvlari ifloslanishiga olib kelmoqda. Norin, Kosonsoy va Chortoq daryo va soylari sanoat va maishiy oqava suvlar bilan ifloslanmoqda. Qishloq xo'jaligida kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlarning me'yoridan ortiqcha qo'llanilishi esa ekologik muhitga bosimni kuchaytiradi. Meliorativ holat ham yomonlashib bormoqda (ba'zi tumanlarda sho'rlanish darajasi ortgan).

Boshqa tomondan, iqtisodiy ko'rsatkichlar viloyatda ishlab chiqarish va xizmatlar sohasining faollashganini ko'rsatadi. 2023-yilda viloyat sanoat mahsulotlari hajmi 20,4 trillion so'mga yetdi. Elektr texnika, to'qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari yetakchi tarmoqlar hisoblanadi. Shu bilan birga, bu tarmoqlarda chiqindilarni kamaytirish va tozalash inshootlari yetarli darajada emas. Qishloq xo'jaligida don, sabzavot, meva-sabzavotlar yetishtirish hajmi ortmoqda. Biroq, bu sohada intensiv texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmagani natijasida suv sarfi yuqori bo'lib qolmoqda. Sug'orish tizimlarining eskiligi resurslardan samarasiz foydalanishga olib keladi.

Namangan viloyatida adirlik yerlarni sug'orilishi natijasida Qoradaryo, Norindaryo va Sirdaryoning quyi terrassalarida joylashgan yerlardan yuqoridagi suvlarni filtrlanishi hisobiga yer osti sizot suvlari ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Bu yesa shu hududlardagi zakan zovur suvlarining oqim miqdori me'yoridan ko'p

bo'lishiga va tumanlarning ba'zi bir xo'jaliklarida yer osti suvlari ko'tarilib yer yuzasiga chiqib ketishiga olib kelmoqda. Viloyatda kuchli suv va shamol erroziyasiga uchragan maydonlar Yangiqo'rg'on, Kosonsoy, Norin Mingbuloq va Pop tumanlariga to'g'ri keladi. Asosiy sho'rlangan yerlar Mingbuloq va Pop tumanlarida joylashgan. Meliorativ holati yomon yerlar asosan Mingbuloq, Namangan, To'raqo'rg'on, Pop, Chust tumanlarida joylashgan.

Namangan viloyatida sug'oriladigan yerlarning umumiy maudoni 242,7 ming gektarni tashkil etadi. Sug'oriladigan yerlarning umumiy maudonida Kosonsoy, Mingbuloq, Pop, Uchqo'rg'on, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlari yuqori ulushga yega. Namangan viloyatida sug'oriladigan yerlarning boniteti 2014 yilda o'rtacha 59 ball va 2024 yilda 57 balldan iborat bo'ldi (3-jadval).

3-jadval

Namangan viloyatida sug'oriladigan yerlarning o'rtacha bonitet balli va g'alla hosildorligi¹²

№	Hududlar	Jami sug'orma yerlar, ga.	O'rtacha bonitet ball		G'alla hosili, ts/ga.
			2014-yil	2024-yil	
1	Namangan shahri	546	-	43	25,8
2	Kosonsoy	20736	57	58	34,8
3	Mingbuloq	35567	45	49	29,4
4	Namangan	15281	60	61	36,6
5	Norin	13261	65	67	40,2
6	Pop	35186	47	48	29,0
7	To'raqo'rg'on	15231	62	60	36,3
8	Uychi	18061	63	64	38,4
9	Uchqo'rg'on	21074	68	70	42,0
10	Chortoq	15956	60	61	36,7
11	Chust	28483	50	51	31,0
12	Yangiqo'rg'on	23361	55	57	34,2
	Viloyat bo'yicha	242743	59	57	34,2

Namangan viloyatining qishloq xo'jalik yerlari 389,2 ming gektarni tashkil yetadi. Ushbu ko'rsatkichlarni hududlar kesimida tahlil yetilganda yuqori darajadagi tafovutlar kuzatiladi. Jumladan, qishloq xo'jalik yerlari tarkibida yekin yerlarining ulushi Mingbuloqda 93,6, Norinda 91,8 va Uchqo'rg'onida 93,7 foizdan iborat. Namangan, To'raqo'rg'on, Uychi va Chust tumanlarida ekin yerlarining ulushi 60-85 fozni tashkil etadi. Past ko'rsatkichga ega bo'lgan Namangan shahri, Kosonsoy, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlari ishida Pop tumani 19,3 foiz ulush bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jalik yerlari tarkibida yaylovlarning yuqori ulushi Kosonsoy (31,6), Pop (77,2), Chortoq (30,7), Yangiqo'rg'on (29,2) tumanlarida kuzatiladi (4-jadvalga qarang).

¹² Kadastr agentligi Namangan viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

Namangan viloyatining yer fondi tarkibi (2024 yil)¹³

Hudud	Qishloq xo'jalik yerlari, gektar	Shundan qishloq xo'jalik yerlari tarkibi (foiz)			
		Ekin yerlari	Ko'r yillik daraxtzorlar	Bo'z yerlar	Yaylovlar
Namangan sh.	1636	48,5	41,6	0,0	9,9
Kosonsoy	31379	55,1	13,3	0,0	31,6
Mingbuloq	35494	93,6	3,0	1,0	2,4
Namangan	16167	77,1	10,1	0,5	12,4
Norin	12969	91,8	8,2	0,0	0,0
Pop	147313	19,3	2,8	0,7	77,2
To'raqo'rg'on	16965	69,4	15,8	1,9	12,9
Uychi	17618	85,0	14,7	0,4	0,0
Uchqo'rg'on	20675	93,7	6,3	0,0	0,0
Chortoq	22653	44,3	23,7	1,3	30,7
Chust	34147	63,1	18,5	0,8	17,6
Yangiqo'rg'on	32240	30,0	40,5	0,4	29,2
Viloyat bo'yicha	389256	49,2	11,3	0,6	38,9

Namangan viloyatidagi ekologik-iqtisodiy farqlar tumanlar kesimida ham ko'zga tashlanadi. Namangan shahri ekologik yuklamasi eng yuqori bo'lgan hudud hisoblanadi. Uy-joy qurilishi, avtomobil harakati va sanoat korxonalarini ko'pligi bu holatni kuchaytirmoqda. Chortoq va Pop tumanlari tabiiy resurslarga boy bo'lsa-da, ekologik standartlarga amal qilinmasligi ekologik xavfni oshirmoqda. Norin va Uychi tumanlarida esa suv tanqisligi va yerlarning sho'rlanishi kuzatilmoqda. Bu esa ekologik-iqtisodiy muvozanatning izdan chiqishiga olib keladi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning zaifligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi va nazorat tizimining samarasizligi muhim muammolar sifatida ajralib turadi.

Bugungi kunda har bir mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda ekologik xavfsizlikka bo'lgan e'tibor sezilarli darajada oshgan. Bu, eng avvalo, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, mavjud ekologik muammolarni chuqur anglash va ularni tizimli hal etishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni samarali joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, chiqindilarni qayta ishlash bilan bog'liq masalalarda zamonaviy yondaShuvlarni joriy etish zaruratga aylangan.

Namangan viloyatida 2023-yilda faoliyat yuritayotgan 16 ta korxonaning chiqindini qayta ishlash quvvati yiliga 127,686 tonnani tashkil qilgan. Shu yili 119,228 tonna chiqindi qayta ishlanib, 100,375 tonna mahsulot olinishi ta'minlangan. Chiqindilarni qayta ishlovchi korxonalar faoliyatining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari ham ijobiy tendensiyani namoyon etmoqda. 2024-yilda 2020-yilga nisbatan korxonalar soni 129,4 foizga, qayta ishlangan chiqindi hajmi 340,6 foizga, qayta ishlashdan olingan mahsulot hajmi va realizatsiyadan tushgan sof tushum 300,3

¹³ Kadastr agentligi Namangan viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

foizga, foyda solig'igacha bo'lgan daromad 459,5 foizga, rentabellik darajasi esa 153,1 foizga oshgan (5-jadval).

5-jadval

Namangan viloyatida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari¹⁴

№	Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2024 y.da 2020 u.ga nisbatan, foiz
1	Korxonalar soni	17	17	19	16	22	129,4
2	Qayta ishlangan chiqindi hajmi (tonna)	48273	76418	104645	119228	164430	340,6
3	Qayta ishlashdan olinadigan mahsulot hajmi (tonna)	41514	68776	89995	100375	124652	300,3
4	Mahsulotlarni sotishdan tushgan sof tushum (mln. so'm)	266645,4	411749,9	508040,1	664711,1	800642,8	300,3
5	Ishlab chiqarish harajatlari (mln. so'm)	210941,5	300534,7	373256,7	468614,9	544699,6	258,2
6	Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda, (mln. so'm)	55703,9	111215,2	134783,4	196096,2	255943,3	459,5
7	Rentabellik (foiz)	20,9	27,0	26,5	29,5	32,0	153,1

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, atrof-muhitni muhofaza qilishga ixtisoslashgan korxonalarini tashkil etish va rivojlantirish mintaqa iqtisodiyoti uchun ijtimoiy-iqtisodiy nafli yo'nalish hisoblanadi.

Shuningdek, viloyatda aholi tomonidan hosil bo'ladigan chiqindilar hajmi va qayta ishlash darajasi o'rtasida katta tafovut mavjud. 2024-yilda umumiy 655,4 ming tonna maishiy chiqindining atigi 134,4 ming tonnasi yoki 20,5 foizi qayta ishlangan. Sanitariya tozalash xizmati bilan qamrab olingan aholi soni 2912,5 ming kishini tashkil etib, ular tomonidan hosil bo'lgan 561,9 ming tonna chiqindining faqat 22,8 foizi qayta ishlangan (6-jadval).


¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi Namangan viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

6-jadval

Namangan viloyatida maishiy chiqindilarni hosil bo'lishi va qayta ishlash ko'rsatkichlari (2024 yil)¹⁵

Umumiy aholi soni (ming kishi)	Umumiy aholidan hosil bo'lgan chiqindi (ming tonna)	Shundan qayta ishlandi		Sanitar tozalash xizmati bilan qamrab olingan aholi soni (ming kishi)	Sanitar tozalash xizmati bilan qamrab olingan aholidan hosil bo'lgan chiqindi (ming tonna)	Shundan qayta ishlandi	
		ming tonna	foiz			ming tonna	foiz
3131,7	655,4	134,4	20,5	2912,5	561,9	128,6	22,8

Namangan viloyatida chiqindini qayta ishlash korxonalarini tomonidan asosan 6 xil turdagi chiqindilarga qayta ishlanmoqda. Ularning 25 foizi qog'oz va plastmassa, 19 foizi polpropilen va metal, 6 foizi paxta chiqindisi va rezinani tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan korxonalar yetarlicha rivojlanmagan (2-rasm).



2-rasm. Namangan viloyatidagi qayta ishlanadigan chiqindi turlari¹⁶

Bu yerda yana bir muhim masala shundaki, chiqindilarni saralash darajasi past bo'lib, qayta ishlanayotgan chiqindilar turi va ulardan olinayotgan mahsulotlar xilma-xilligi cheklangan. Shuningdek, mavjud chiqindixonalar ekologik talab va me'yorlarga javob bermaydi. Ko'plab chiqindixonalar geologik va gidrogeologik sharoitlar inobatga olinmagan, sanitariya-himoya zonalarini ajratilmagan holda tashkil etilgan. Bu holat esa chiqindilarni nazoratsiz ravishda joylashtirishga olib kelmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida Namangan viloyatining ekologik xavfsizligini

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi Namangan viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi Namangan viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

ta'minlashda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning amal qilishini SWOT tahlil qilingan (7-jadval).

7-jadval

Namangan viloyatining ekologik xavfsizligini ta'minlashda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning amal qilishini SWOT tahlili¹⁷

S – kuchli tomonlari	W – kuchsiz tomonlari
1. Mintaqadagi mavjud ekologik muammolarni tadbirkorlik orqali bartaraf yetish; 2. Yashil iqtisodiyotni rivojlanishini qo'llab-quvvatlash; 3. Yashil ish o'rinlarini yaratish; 4. Tabiiy resurslarni oqilona foydalanishga qaratilgan davlat dasturlari; 5. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan innovatsion-investitsion loyihalarni amalga oshirish; 6. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda xorijiy fondlar va investorlardan investitsiualar jalb qilish;	1. Qayta tiklanuvshi resurslardan foydalanishning qimmatligi; 2. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasiga ajratiladigan mablag'larning kamligi; 3. Atrof-muhitga zararli ta'siri bo'lgan korxonalar ustidan nazoratning sustligi; 4. Chiqindini qayta ishlash korxonalaridan kam turdagi chiqindilarni qayta ishlanishi; 5. Atrof-muhitga zarar yetkazayotgan korxonalar faoliyati tugatilishi va xodimlarning ishsiz qolishi;
O – imkoniyatlari	T – xavf-xatar yoki tahdidlar
1. Ekologik tadbirkorlikni keng rivojlantirish orqali davlat budjetining ekologik sohalarga yo'naltirilayotgan mablag'larini tejab qolish; 2. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish; 3. Chiqindilardan tayyor xom ashyo sifatida foydalanish; 4. Qayta tiklanuvshi energiya manbalaridan foydalanish; 5. Sanoat korxonalarining ekologik zararlarini kamaytirish.	1. Insonlarning atrof-muhitni muhofaza qilishga va ijtimoiy-ekologik muammolarga ye'tiborsizligi; 2. Ekologik tadbirkorlikka imtiyozlar berish orqali bozordagi sog'lom muhitni buzilishi; 3. Avtotransport vositalaridan atmosfera havosiga tashlanadigan zaharli moddalar miqdorini oshib borishi; 4. Insonlar va korxonalar tomonidan ekologik huquqbuzarlikni sodir yetishi; 5. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash boshqa mamlakatlarning siyosatiga bog'liqligi.

Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini amal qilishining kuchli tomonlari mintaqadagi mavjud ekologik muammolarni tadbirkorlik orqali bartaraf yetish, yashil iqtisodiyotni rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, yashil ish o'rinlarini yaratish, tabiiy resurslarni oqilona foydalanishga qaratilgan davlat dasturlari, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan innovatsion-investitsion loyihalarni amalga oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda xorijiy fondlar va investorlardan investitsiualar jalb qilishdan iborat. Mavjud imkoniyatlar ekologik tadbirkorlikni keng rivojlantirish orqali davlat budjetining ekologik sohalarga yo'naltirilayotgan mablag'larini tejab qolish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilardan tayyor xom ashyo sifatida foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va sanoat korxonalarining ekologik zararlarini kamaytirish bilan izohlanadi.

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shunday bo'lsada, mamlakatda atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori bo'yicha eng kam ulushga ega bo'lgan Namangan viloyatini tahlil qilsak, bir muncha salbiy holatlarni kuzatish mumkin. Jumladan, atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar 2015-yilda 3,9 ming tonnani tashkil qilgani holda 2024-yilda 7,8 ming tonna yoki 2024-yilda 2015-yilga nisbatan 2 barobarga oshgan. 2017–2021-yillar davomida o'rtacha 15,8 ming tonnadan iborat bo'lgan. eng yuqori ko'rsatkich 2022-yilda kuzatildi va 23,9 ming tonnani tashkil qilgan (8-jadval).

8-jadval

Namangan viloyatida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar, ming tonna¹⁸

Hududlar	Yillar									
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Namangan sh.	0,9	1,1	11,4	10,4	10,3	10,7	10,3	21,2	4,3	3,7
Mingbuloq	0,2	0,2	0,7	0,4	0,2	0,1	0,1	0,0	0,0	0,0
Kosonsoy	0,3	0,4	0,3	0,4	0,4	0,3	0,2	0,3	0,3	0,2
Namangan	0,2	0,7	0,2	0,5	0,5	0,6	0,5	0,1	0,1	0,1
Norin	0,1	0,1	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1	0,0	0,0	0,1
Pop	0,6	1,0	1,1	1,3	1,1	1,4	0,7	0,4	0,3	0,3
To'raqo'rg'on	0,3	0,1	0,2	0,5	0,5	0,4	1,0	0,8	0,9	2,2
Uychi	0,2	0,2	0,3	0,4	0,5	0,6	0,4	0,3	0,4	0,2
Uchqo'rg'on	0,2	2,9	0,6	0,6	0,6	0,4	0,8	0,3	0,3	0,4
Chortoq	0,3	0,4	0,3	0,6	0,3	0,3	0,2	0,1	0,2	0,2
Chust	0,3	0,3	0,3	0,5	0,4	0,4	0,3	0,1	0,1	0,3
Yangiqo'rg'on	0,2	0,3	0,2	0,2	0,3	0,3	0,4	0,2	0,1	0,1
Namangan viloyati	3,9	7,8	15,8	15,9	15,2	15,8	15,0	23,9	7,0	7,8

Demak, Namangan viloyatida ekologik vaziyat hududiy jihatdan katta farq qilmasa-da, ekologik vaziyatni baholash hamda ekologik tumanlashtirish mezonlarini ishlab shiqish, ilmiy asoslangan ekologik tumanlashtirishni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ekologik tumanlashtirishni mezonlaridan kelib shiqib, Kosonsoy, Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on, Chortoq, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlarini "qoniqarli" baholash mumkin. Namangan shahri, Pop va Mingbuloq "keskin" tumanlar guruhiga kiradi. Umumiy holda Namangan viloyatida "keskin bo'lmagan" ekologik vaziyat kuzatiladi.

Namangan viloyatida iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lishiga qaramay, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ayniqsa, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligini ekologik jihatdan barqaror rivojlantirishda qator muammolar saqlanib qolmoqda. Tarmoq va sohalarni joylashtirishda ekologik xususiyatlar yetarli darajada hisobga olinmasligi, mavjud ishlab chiqarishlarning hududiy joylashuvi va atrof-muhitga ta'siri o'rtasidagi muvozanatsizlik mintaqaviy ekologik holatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, sanoat korxonalarini joylashtirishda ishlab chiqarishning ekologik

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

xavfsizligi, ishchi kuchi salohiyati va aholining yashash joylariga yaqinlik kabi omillar inobatga olinishi lozim.

So‘nggi yillarda Namangan shahrida yirik sanoat korxonalarining shaharning markaziy qismlaridan chekka hududlarga ko‘chirilishi ijobiy natijalar bermoqda. Bu orqali aholining zich yashovchi hududlarida ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga erishilmoqda. Biroq bu jarayon natijasida ayrim tumanlarda sanoat korxonalari haddan tashqari zichlashib, bu esa atmosferaga chiqayotgan zaharli moddalarning tog‘ va adirlik hududlarga tez tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ishlab chiqarish quvvatlarini tog‘li va nisbatan kam aholi zichligiga ega hududlarga muvozanatli ravishda joylashtirish muhim ekologik zaruratdir.


Namangan viloyatida sanoat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham ekologik xavfsizlikni ta‘minlash borasida bir qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, yer almashlab ekish tizimining izchil qo‘llanilmasligi, sug‘orishda zamonaviy texnologiyalarning cheklanganligi, tuproq unumdorligining pasayishi va ikkilamchi sho‘rlanish darajasining ortib borayotgani ushbu muammolarning asosiylaridan sanaladi. Oxirgi 15-20 yil ichida tabiiy sho‘rlangan yerlardan tashqari, meliorativ holati og‘ir bo‘lgan hududlarni o‘zlashtirish natijasida sho‘rlangan yerlar maydoni sezilarli darajada kengaygan. Bu esa tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelmoqda. Ushbu holatni bartaraf etishda organik o‘g‘itlardan keng foydalanish va yerlarni almashlab ekish tizimini izchil joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida suv resurslarining taqchilligi ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur holatlar qishloq xo‘jaligida sug‘orishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish zaruratini kuchaytirmoqda.

Tabiiy-hududiy majmualarning barqarorligi ularning mavjud tuzilmasini saqlab qolish va tashqi omillar ta‘sirida moslashuvchan bo‘lishiga bog‘liqdir. Zamonaviy iqlim o‘zgarishlari va antropogen bosimlar natijasida Namangan viloyatida daryo havzalarining tabiiy landshaftlari o‘zgarib bormoqda. Xususan, sug‘orma dehqonchilik, yaylov va o‘tloqlar kabi qishloq xo‘jaligi hududlari o‘z tabiiy holatiga nisbatan kam bardoshlilik bilan ajralib turadi. Antropogen omillar natijasida biologik muvozanat buzilib, eroziya, deflyatsiya, sho‘rlanish, botqoqlanish va boshqa noxush jarayonlar kuchaymoqda. Shunday ekan, mintaqada ekologik xavfsizlikni ta‘minlash uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur: sanoat obyektlarini hududiy ekologik xususiyatlarga mos ravishda joylashtirish; qishloq xo‘jaligida zamonaviy irrigatsiya texnologiyalarini keng joriy etish; yer resurslarining degradatsiyasiga qarshi kompleks agroekologik chora-tadbirlarni kuchaytirish; suv resurslaridan barqaror foydalanish siyosatini shakllantirish; transchegaraviy suv resurslarini muvofiqlashtirilgan holda boshqarish mexanizmini yaratish.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari”**ga qaratilgan bo‘lib, yashil korxonani rivojlantirish – ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi sifatida tadqiq etilgan va mintaqada ekologik xavfsizlikni ta‘minlashning ko‘p omilli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Hozirgi davrda ekologik muammolarning tobora dolzarb tus olayotgani yashil korxonalar faoliyatini rivojlantirish zaruratini oshirmoqda. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni ekologik xavfsizlikni ta'minlashda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonda yashil korxonalarining ahamiyati beqiyos bo'lib, ular ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash, atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish orqali o'z faoliyatini olib boradi.

Yashil korxonalar tuchunchasi oddiy ishlab chiqarish subyektidan farqli ravishda, atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli yondashuv, ijtimoiy manfaatdorlik va iqtisodiy barqarorlikni uyg'unlashtirgan faoliyat turidir (3-rasm).



3-rasm. Yashil korxonani rivojlantirish mexanizmi¹⁹

Yashil korxonaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan ifodalanadi: ekologik xavflarni bartaraf qilishga tayyorlik; ekologik muammolardan unumli foydalanish qobiliyati; asosiy maqsadga erishish uchun turli xil manbalarni jalb qilish qobiliyati; mavjud ekologik muammolarni hal qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish; insonlarni turmush darajasini yaxshilash orqali daromad torish va boshqalar.

Tadqiqotda yashil korxonalar faoliyatini baholash ko'rsatkichlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha guruhlangan: ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy. Mazkur ko'rsatkichlar yashil korxonani rivojlanishi natijasida erishish mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik samaradorlikni baholashga xizmat qiladi (9-jadval).

¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


Yashil korxonani rivojlanishi natijasida erishish mumkin bo'lgan samaradorlik ko'rsatkichlari²⁰

Guruh	Vosita	Ko'rsatkichlar
Ekologik	Atrof muhit holatini yaxshilash	- karbonat angidrid emissiyasini kamaytirish; - zararli ta'sirlardan himoyalangan tabiiy hududlar; - havo va yer-suv resurslari sifati.
Iqtisodiy	Ishlab chiqarish omillarining (tabiiy va inson kapitali) ortishi	- ishlab chiqarish omillarining bir birlikka o'sishi natijasida ishlab chiqarish hajmining ortishi.
	Bozordagi inqirozli holatlarni innovatsiyalarni rivojlantirish va yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida bartaraf etish	- yashil texnologiyalarning samaradorlik ko'rsatkichlari; - yashil texnologiyalar bilan ta'minlanish darajasi.
Ijtimoiy	Tabiiy ofatlar, oziq-ovqat mahsulotlari narxlari beqarorligi va iqtisodiy inqiroz holatlariga moslashuvchanlik	- tabiiy ofatlardan ko'rilgan zararlar (rul birligida); - tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan aholi soni (kishi); - narx beqarorligidan zarar ko'rgan aholi soni (kishi)
	Yashil ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni qisqartirish	- yashil ish o'rinlari va ularning qambag'allikni qisqartirish darajasiga ta'siri; - ish bilan bandlik va resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq ko'rsatkichlar

Shuningdek, mintaqada yashil korxonaning faoliyatining rivojlanishini baholash quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan (4-rasm): 1) rejalashtirish: ekologik samaradorlikni baholash uchun harakatlar dasturini tayyorlash; ekologik samaradorlikni baholash uchun ko'rsatkichlarni tanlash. 2) amalga oshirish: tanlangan ko'rsatkichlarga taalluqli ma'lumotlarni yig'ish; korxonaning ekologik samaradorligini ta'riflovchi ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish; korxonaning iqtisodiy rivojlanish mezonlarini taqqoslash asosida ekologik samaradorlikni tavsiflovchi ma'lumotlarni umumlashtirish; korxonaning ekologik samaradorligini tavsiflovchi hisobotni tayyorlash. 3) monitoring va harakat: tashkilotning ekologik samaradorligini ta'riflovchi hisobot tahlili; ekologik samaradorlikni baholash ko'rsatkichlarini takomillashtirish.

²⁰ Inclusive green growth: the pathway to sustainable development.

<https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/368361468313515918/main->



4-rasm. Mintaqada yashil korxonalar faoliyatining rivojlanishini baholash bosqichlari²¹

Bu tasnif asosida hududlarda yashil korxonalar rivojlanishining holati tahlil qilinib, ularning ekologik xavfsizlikni ta'minlashdagi salohiyati baholangan. Jumladan, Namangan viloyati hududlarida yashil korxonalar faoliyatini rivojlanishining baholash qiymati 0,1 dan 1,0 gacha bo'lgan oraliqda olingan bo'lib, yuqori, o'rta va past darajalar uig'indisi ko'rsatkichlar majmuasini ifodalaydi. Masalan, yashil korxonalar faoliyatini rivojlanishining past darajasiga ega bo'lgan hududlar Namangan shahri, Pop va Mingbuloq tumanlari hisoblanadi. Demak, mintaqada faoliyat olib borayotgan yashil korxonalar rivojlanishi hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati bilan chambarchas bog'liq. Yashil korxonalar rivojlantirish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim tarkibiy qismidir. Ularning faoliyati nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladi. Shu bois, Namangan viloyatida yashil korxonalar qo'llab-quvvatlash, monitoringini olib borish va samaradorligini baholash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur (10-jadvalga qarang).

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Namangan viloyati hududlarida yashil korxonalar faoliyatini rivojlanishining chegaraviy qiymati²²

№	Hududlar	2020 yil	2022 yil	2024 yil	2024 yilda 2020 yilga nisbatan indeks
1	Namangan shahri	0,1	0,3	0,2	2,00
2	Kosonsoy	0,34	0,33	0,40	1,18
3	Mingbuloq	0,1	0,2	0,2	2,00
4	Namangan	0,36	0,40	0,51	1,42
5	Norin	0,55	0,82	0,77	1,40
6	Pop	0,1	0,28	0,3	3,00
7	To'raqo'rg'on	0,36	0,58	0,62	1,72
8	Uychi	0,38	0,47	0,54	1,42
9	Uchqo'rg'on	0,55	0,63	0,68	1,24
10	Chortoq	0,36	0,37	0,44	1,22
11	Chust	0,31	0,58	0,67	2,16
12	Yangiqo'rg'on	0,34	0,40	0,55	1,62
	Viloyat bo'yicha	0,32	0,44	0,49	1,53

Namangan viloyatining tabiiy resurslari xilma-xilligi, umumiy agroiklimiy sharoitlari, ishlab chiqarish tizimini yo'lga qo'yish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Aynan shu omillar viloyatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida ishlab chiqaruvchi kuchlarni istiqbolli yo'nalishlarda joylashtirish va rivojlantirishni ilmiy asosda rejalashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, hozirgi ishlab chiqarish tizimida yetakchi sohalarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biridir.

Namangan viloyatida atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar hajmining 2027–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari inersion variant asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ifloslantiruvchi moddalar hajmi joriy rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda hisoblangan. Eng yuqori ifloslanish ko'rsatkichi Namangan shahriga to'g'ri keladi. 2027-yilda bu ko'rsatkich 4,5 ming tonnaga, 2030-yilda esa 5,3 ming tonnaga yetishi prognoz qilinmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, shaharning aholi ulushi 64,9 foizni, sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 31,1 foizni tashkil qilgan. Transport zichligi ham yuqori darajada bo'lib, bu atmosfera ifloslanishining o'sishiga sabab bo'lmoqda. 2030-yilda Namangan shahrida ifloslantiruvchi moddalar hajmining o'sish sur'ati 2024-yilga nisbatan 143,2 foizni, Kosonsoy, Uychi va Chortoq tumanlarida esa 150 foizni tashkil qilishi kutilmoqda (11-jadval).

²² O'zbekiston Respublikasi Ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi Namangan viloyati boshqarmasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

11-jadval**Namangan viloyatida atmosferaga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar prognozlari, ming tonna²³**

Hududlar	Haqiqatda	Prognoz ko'rsatkichlari		2027 y.da 2024 y.ga nisbatan, foiz	2030 y.da 2024 y.ga nisbatan, foiz
	2024	2027 yil	2030 yil		
Namangan sh.	3,7	4,5	5,3	121,6	143,2
Mingbuloq	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kosonsoy	0,2	0,3	0,3	150,0	150,0
Namangan	0,1	0,1	0,1	100,0	100,0
Norin	0,1	0,1	0,1	100,0	100,0
Pop	0,3	0,4	0,4	133,3	133,3
To'raqo'rg'on	2,2	2,5	2,8	113,6	127,3
Uychi	0,2	0,3	0,3	150,0	150,0
Uchqo'rg'on	0,4	0,5	0,5	125,0	125,0
Chortoq	0,2	0,2	0,3	100,0	150,0
Chust	0,3	0,3	0,4	100,0	133,3
Yangiqo'rg'on	0,1	0,1	0,1	100,0	100,0
Namangan viloyati	7,8	9,3	10,8	119,2	138,4

Shuningdek, ko'p omilli prognoz parametrlaridan ko'rish mumkinki, chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini soni 2030-yilda 34 taga teng bo'lib, umumiy chiqindi ishlab chiqarish hajmi 197989,8 tonna, qayta ishlangan chiqindi hajmi yesa 188981,2 tonnani tashkil yetadi. Viloyatda qayta ishlash loyihaviy quvvati 248047,5 tonnadan iborat bo'ladi (12-jadval).

12-jadval**Namangan viloyatida qayta ishlangan chiqindi hajmi o'zgarishining ko'p omilli prognoz parametrlari**

Yillar	Qayta ishlangan chiqindi hajmi, tonna	Qayta ishlash korxonalar soni, birlik	Umumiy chiqindi ishlab chiqarish hajmi, tonna	Qayta ishlash loyihaviy quvvati, tonna
2025	171890,3	26	185876,3	201080,0
2026	173323,4	27	188299,0	204473,5
2027	176627,5	29	190721,7	207867,0
2028	179921,7	30	193144,4	241260,5
2029	181331,0	32	195567,1	244654,0
2030	188981,2	34	197989,8	248047,5

Bu yesa o'z navbatida, Namangan viloyatida qayta ishlanishi lozim bo'lgan chiqindilarni ko'rlikidan ushbu sohada faoliyat yuritadigan korxonalarini tashkil etish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof muhit muhofazasi uchun rag'batlantirishni yo'lga qo'yishni talab etmoqda.

Namangan viloyatida chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini tashkil etish bo'yicha mavjud loyihalardan samarali foydalanish zarur. Bu korxonalarini ko'paytirish orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan siyosatni izchil

²³ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

amalga oshirish mumkin. Ayni paytda, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini qo‘llab-quvvatlash, yangi loyihalarni ishga tushirishda investitsiya resurslarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chiqindilarni qayta ishlashning zamonaviy sanoat bazasini shakllantirish ekologik siyosatning ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, mintaqaviy siyosatning ham ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi kerak.

XULOSA

Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

1. Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish zarurati aniqlandi. Viloyatda sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanishi ekologik xavfni kushaytirmoqda, xususan, sanoat chiqindilari hajmining 2025–2030-yillar oralig'ida 9,3 ming tonnadan 10,8 ming tonnagacha oshishi kutilmoqda. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta ishlash sanoatini kengaytirish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy qilish orqali ushbu xavflarni kamaytirish mumkin.

2. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish Namangan viloyatining ekologik barqarorligini ta'minlashning asosiy jihatlaridan biridir. Hozirda sug'oriladigan yerlarning 40 foizga yaqini sho'rlangan va bu holat qishloq xo'jaligi samaradorligini rasaytirmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf yetish uchun yer melioratsiyasi dasturlarini joriy qilish, zamonaviy va ekologik jihatdan samarali sug'orish texnologiyalarini qo'llash zarur.

3. Namangan viloyatida yashil korxonalarini rivojlantirish ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim yo'nalishi sifatida belgilanmoqda. 2024-yil yakunlari bo'yisha yashil korxonalarining umumiy iqtisodiy faoliyatdagi ulushi faqat 3,2 foizni tashkil etmoqda. Kelgusida ushbu ko'rsatkichni 10-15 foizga yetkazish uchun ekologik jihatdan toza ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish dasturlarini kengaytirish, davlat subsidiyalarini oshirish va innovatsion ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash talab etiladi.

4. Namangan viloyatida ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash va utilizatsiya qilish mexanizmlarini rivojlantirish iqtisodiy va ekologik jihatdan samarador hisoblanadi. Ayni raytda mavjud 25 ta chiqindini qayta ishlovshi korxonalar umumiy chiqindilar hajmining faqatgina 20 foizini qayta ishlay olmoqda. Ushbu ko'rsatkichni kelgusida 50 foizga yetkazish uchun yangi qayta ishlash korxonalarini tashkil etish va zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish zarur.

5. Namangan viloyatidagi sanoat korxonalarining ekologik xavfsizlik talablariga javob berish darajasini oshirish uchun sanoat zonalarini va sanitariya himoya zonalarini tashkil qilish zarur. Ayniqsa, shahar atrofi sanoat korxonalarini havo ifloslanishining 60 foiziga sabab bo'lmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun korxonalarini ekologik xavfsiz hududlarga joylashtirish yoki mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik xavfsiz texnologiyalar bilan modernizatsiya qilish lozim.

6. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashda jamiyatning ekologik ongini va madaniyatini oshirish muhimdir. Hozirgi vaqtda Namangan viloyati aholisining ekologik bilimlari yetarli yemasligi sababli atrof-muhitga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar ko'raymoqda. Ekologik ta'lim dasturlarini kengaytirish orqali aholining ekologik mas'uliyatini oshirish, ekologik xavflarning oldini olish mumkin.

7. Namangan viloyatida ekologik xavfsizlik prognoz parametrlarini aniqlash orqali kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik xavflarni boshqarish imkoniyatlari mavjud. Xavfsizlik ko'rsatkichlarini belgilash, ekologik xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy yetish orqali ishlab chiqarish

faoliyatlarida ekologik xavflarni kamaytirish mumkin. Ushbu strategik rejalashtirish ekologik xavfsizlikni barqaror ta'minlashga ko'maklashadi.

8. Davlat organlari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash ekologik xavfsizlik choralarning samaradorligini oshiradi. Ushbu mexanizm orqali yashil iqtisodiyotga investitsiyalar hajmini oshirish, ekologik xavfsizlik loyihalarini moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi.

9. Atrof-muhit monitoringi va nazorat tizimlarini kuchaytirish Namangan viloyatining ekologik xavfsizligini ta'minlashda muhimdir. Ayni paytda monitoring tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ekologik xavflarning kech aniqlanishiga sabab bo'lmoqda. Monitoring tizimlarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, ekologik nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali ekologik xavfsizlikni samarali boshqarish mumkin.

10. Namangan viloyatida ekologik xavfsizlikni samarali ta'minlash uchun davlat organlari, korxonalar va mahalliy jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ekologik ta'lim va ongni oshirish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo'yisha majmual chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Bu yesa ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlab, viloyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/27.09.2024.I.55.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

Одилов Хамидилло Махмуджон угли

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО
МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ
(НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

08.00.12 – Региональная экономика

АВТОРЕФЕРАТ

диссертация доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ургенч – 2025

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2025.1.PhD/Iqt5188.

Докторская диссертация выполнена в Наманганском государственном университете.

Автореферат диссертации доступен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.adu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Муллабаев Бахтияржон Бултурбаевич**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:: **Матякубов Умид Рахимович**
доктор экономических наук, профессор

Ўзубоев Бехзод Хамидович
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация: **Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в ____ : ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.I.55.03 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни. (зарегистрирована за номером ____). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; e-mail: arm@urdu.uz

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 года).

И. С. Абдуллаев

Председатель научного совета, по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Т. Ж. Рахимов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD., доцент

Б. Рузметов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Изменение климата в мире, ограниченность природных ресурсов, интенсивное развитие промышленности и урбанизация приводят к углублению экологических проблем. За последние 10 лет объём выбросов углекислого газа ежегодно увеличивается в среднем на 1,2%.²⁴ По данным Всемирного банка, из-за загрязнения окружающей среды развивающиеся страны ежегодно теряют от 2 до 5% ВВП. В Индии в 2024 году экономический ущерб от негативного влияния экологических рисков на здоровье населения составил 95 миллиардов долларов.²⁵ Эти показатели демонстрируют, что обеспечение экологической безопасности является не только экологической, но и экономической задачей. Поэтому в Европейском союзе в рамках стратегии «Зелёное соглашение» поставлена цель снизить выбросы углекислого газа на 55% к 2030 году. Согласно законодательству 2023 года, в США запланировано инвестировать 369 миллиардов долларов в «зелёную инфраструктуру».²⁶ Это требует усиления экологического контроля в регионах и согласования экономической деятельности с экологическими требованиями.

Научные исследования, проводимые во всем мире, выявили необходимость организационного развития в целях гармоничного развития экономики региона в условиях экологической безопасности, экономических и технологических инструментов для гармоничного развития региональной экономики с обеспечением экологической безопасности и разработки современных научных подходов. Особое внимание уделяется стимулированию внедрения экологически чистых технологий, разработке норм переработки твёрдых отходов, совершенствованию системы экологических налогов и квот, поиску технологических решений экологических проблем, обоснованию негативного влияния нарушений экологии на региональный экономический рост, развитию системы экологических налогов и преференций, а также внедрению региональных систем экологического аудита и мониторинга. Результаты данных исследований рассматриваются как комплекс мер, направленных на обеспечение экономического роста и экологической устойчивости.

Особое внимание уделяется совершенствованию организационно-экономического механизма обеспечения экологической безопасности в новом Узбекистане. В новой Стратегии развития Узбекистана на 2022–2026 годы обеспечение экологической устойчивости и переход к «зелёной» экономике обозначены как важные направления. Также приняты планы по реализации Целей устойчивого развития ООН на национальном уровне к 2030 году.²⁷ При

²⁴ Methane data and transparency continue to improve, but emissions remain far too high. <https://www.iea.org/news/methane-data-and-transparency-continue-to-improve-but-emissions-remain-far-too-high>

²⁵ Air Pollution Costs Indian Businesses 95 Billion Dollars Every Year, Says Study. https://www.ndtv.com/india-news/air-pollution-costs-indian-businesses-95-billion-dollars-every-year-says-study-2418339#google_vignette

²⁶ The Green Deal Industrial Plan. https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/priorities-2019-2024/european-green-deal/green-deal-industrial-plan_en

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

этом около 80% территории Узбекистана относится к засушливым и полузасушливым регионам. Ежегодно спрос на водные ресурсы увеличивается на 10–15%, а существующие водные источники сокращаются. В таких промышленных районах, как Ташкент, Фергана, Навои, Алмалык уровень загрязнения воздуха превышает нормативы в 2–3 раза. Это требует разработки организационно-экономического механизма обеспечения экологической безопасности с учётом региональной специализации.

Диссертационная работа в определённой степени способствует реализации задач, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4477 от 4 октября 2019 года «Об утверждении стратегии перехода Республики Узбекистан к „зелёной экономике“ на период 2019–2030 годов», Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-3956 от 3 октября 2018 года «О дополнительных мерах по совершенствованию системы государственного управления в области экологии и охраны окружающей среды», а также в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 95 от 18 февраля 2020 года «Об утверждении общего технического регламента об экологической безопасности» и других нормативно-правовых актах в данной области.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I развития науки и технологий Республики – «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

